



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ning

20__ - 20__ - o'quv yiliga 9 – sinf
adabiyot fanidan III chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf adabiyot fani III chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
III chorak				
1.	Alisher Navoiy. Xamsanavislik an‘anasi	1		
2.	Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni (1)	1		
3.	Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni (2)	1		
4.	Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni (3)	1		
5.	Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni (4)	1		
6.	Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni (Mutolaadan so‘ng) Nazariy ma‘lumot. “Farhod va Shirin”da tasavvufiy timsollar va ularning ramziy ifodasi	1		
7.	Zahiriddin Muhammad Bobur. “Xating aro uzoring” g‘azali	1		
8.	Zahiriddin Muhammad Bobur. “Tishing dur” g‘azali	1		
9.	Zahiriddin Muhammad Bobur. Quyosiy tahlil: Boburnomadan lavha / “Jonimdin o‘zga...”/ “Keldi ul vaqtki...” g‘azallari/ “Armon” surati	1		
10.	Nazorat ishi-5	1		
11.	Sharof Boshbekov. “Temir xotin” dramasi (Birinchi sahna)	1		
12.	Sharof Boshbekov. “Temir xotin” dramasi (Birinchi sahna davomi)	1		
13.	Sharof Boshbekov. “Temir xotin” dramasi (Ikkinchi, to‘rtinchi sahnalar)	1		
14.	Sharof Boshbekov. “Temir xotin” dramasi bo‘yicha ijodiy ish: sahna ishi	1		
15.	Halima Xudoyberdiyeva. “Shunchaki” she‘ri	1		
16.	Halima Xudoyberdiyeva. “Dorilomon kunlar keldi” she‘ri	1		
17.	Halima Xudoyberdiyeva. “Yo‘ldadirman” she‘ri	1		
18.	Adabiy laboratoriya. Fanfikshin yaratish	1		
19.	Nazorat ishi-6	1		
20.	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Alisher Navoiy. Xamsanavislik an'anasi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar berish, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo'nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish; badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma'naviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o'ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yuritish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'mak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish;

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Aziz o'quvchi! Siz quyi sinflarda Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida muhim ma'lumotlarga ega bolgansiz. Endi esa buyuk mutafakkirning xamsachilik taraqqiyoti va xamsanavislikka qo'shgan hissasi bilan tanishasiz. "Xamsa" asarini birinchi bo'lib ozarbayjonlik ulug' shoir Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) bitgan. Nizomiy 1170—1204-yillar oralig'ida birin-ketin besh doston yozdi, bu dostonlar shoir vafotidan so'ng yaxlit bir to'plamga birlashtirilib, "Panj ganj" ("Besh xazina") deb atala boshladi va "Xamsa" nomi bilan mashhur boldi. Keyinchalik asli keshlik (shahrisabzlik) ijodkor Xusrav Dehlaviy (1253-1325) Nizomiy "Xamsa" siga javob yozdi va shu bilan xamsanavislik an'anasini boshlab berdi. XV asrda yashagan aksariyat shoirlar "Xamsa"ga javob bitishga harakat qilgan bo'lsa ham ko'pi bir yoki bir necha doston bitoldi xolos. Bu davrda faqat ikki buyuk ijodkor - Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning "Xamsalarigina xamsachilik tarixidan munosib o'rin egalladi. Keyinchalik Abdurahmon Jomiy besh dostonga yana ikki doston qo'shib, "Haft avrang" ("Yetti taxt") deb qayta nomlaydi. Xamsanavislik an'ansi talablariga ko'ra, yozilayotgan har bir doston awalgi shunday **dostonlarga mavzusi, obrazlar tizimi, she'riy olchovi** /cab/jihatlar bilan muvofiq kelishi kerak edi. Shu bilan birga, doston original, yangi asarsifatida namoyon bo'lishi ham lozim edi.



"Xamsa" dostonlari quyidagi mavzularda bo'lishi talab etilgan:



Alisher Navoiy ushbu an'anaga javob sifatida 1483-1485-yillarda turkiy tilda birinchi marta "Xamsa" asarini bitib, **turkiy tilning imkoniyatlarini amalda isbot etdi**. U an'anaviylik doirasidan chiqib ketmagan holda yangi asar yaratishdek mushkul ishni ustalik bilan uddaladi. Xususan, ustozlari Xusrav va Shirin muhabbati vasfiga bag'ishlagan ikkinchi dostonni Farhod va Shirin haqida yozib, xamsanavislikni yangi mavzu bilan boyitdi. Jumladan, xamsachilik an'anasini davom ettirish oson emasligini "Farhod va Shirin" dostonida quyidagicha bayon etgan:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy panjasig'a panja urmoq.

Kerak sher ollida ham sheri jangi,

Agar sher o'lmasa, bori palangi.

Alisher Navoiy beshligi quyidagicha nomlanadi:



“Xamsa” Alisher Navoiy badiiy-irfoniy qarashlarining cho‘qqisi bo‘lib, unda shoirning **komil inson, haqiqiy ishq, mukammal jamiyat, adolatli hukmdor** haqidagi qarashlari to‘laqonli aks etgan.

Komil inson - nafsni yenggan, ezgu axloq va ilohiy bilimlar bilan yetuklikka erishgan, o‘zini va Haqni anglagan, shariat va tariqatda kamol topgan, xalq va Haq o‘rtasida vositachilik qiluvchi, jamiyatga foydasi tegadigan yuksak shaxsdir. “Xamsa” tarkibiga kiruvchi ikkinchi dostonning bosh qahramoni Xusrav Parvez tarixiy shaxs bo‘lib, milodiy 590-yilda taxtga o‘tirgan. 628-yilda o‘g‘li Sheruyaning buyrug‘i bilan o‘ldirilgan. Uning oromiy yoki arman qizi Shiringa muhabbati ko‘plab tarixiy asariarda qayd etilgan. Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbati haqida birinchi bo‘lib Firdavsiy “Shohnoma” dostonida yozib qoldiradi. Nizomiy esa uni alohida ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi. Nizomiyning shu mavzudagi dostoniga javob yozgan Xusrav Dehlaviy esa asarini “Shirin va Xusrav” deb atadi. Alisher Navoiy bu mavzudagi dostonida awalgi dostonlarda ikkinchi darajali timsol tarzida talqin qilingan Farhodni bosh qahramon sifatida tasvirladi. U xamsanavis ustozlar qo‘l lagan syujet chizig‘ini asosan saqlab qoladi. Xusrav, Shirin, Shopur, Sheruya va boshqa qahramonlarni o‘zgartirmagan bo‘lsa-da, o‘z asari orqali ijtimoiy va irfoniy qarashlarini ifodalashni bosh maqsad qilib olgan edi. Farhod timsolida zamona shahzodalariga o‘mak bo‘ladigan, shu bilan birga, majoziy ishq (insonning insonga muhabbati) orqali haqiqiy (ilohiy) ishqqa yetishgan oshiq obrazini yaratishga erishdi. Bu Navoiyning ushbu dostonidagi, umuman, xamsachilikdagi katta yangiligi edi. Navoiyning 54 bobdan iborat “Farhod va Shirin” dostoni 1484-yilda yozib tugallangan. Dostonning 11 bobi muqaddima (kirish)dan iborat bo‘lib, 12-bobdan asosiy voqealar boshlanadi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Avom ishq	Xoslar ishq (majoziy ishq)	Siddiqilar ishq
Yigit bilan qizning bir-biriga bo‘lgan, tabiiy ehtiyoji asosiga qurilgan va nikoh bilan yakunlanadigan intilishidir.	Bunday ishqqa mansublaming ko‘zi, niyati va ko‘ngli pok bo‘ladi. Ular uchun visol emas, ishqning o‘zi – maqsad. Ular yor qiyofasida Alloh jamolini ko‘radi.	Valiylar – avliyolardan yuqori, ammo nabiylar, ya’ni payg‘ambarlardan pastroq darajadagi yetuk shaxslarning Yaratganga beg‘araz muhabbatidir.

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ishqni **avom ishq**i, **xoslar ishq**i, **siddiqilar ishq**i tarzida uch darajaga bo‘ladi.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Quyi sinflarda o‘qilgan mumtoz va zamonaviy asariardan avom ishq, xoslar ishq, siddiqilar ishqga doir misollar to‘plang.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” dostoni (1)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o‘z faoliyatida qo‘llay olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish; shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita olish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va undan foydalana olish;

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bu xitoyi harirni chin naqshlari bilan naqshlamoq va u chin naqshlarini Moniyning mo‘jizakor qalamida chizilgan gullar bilan dilkash qilib bezamoq va bu guliston sahnasida Chin xoqoni

taxti hashamatini yoymoq va xoqoni Chin ta'rifida, uning bo'stonidagi daraxtlar farzand mevasidan bebahra ekanini aytmoq va shahzoda Farhodning yo'qlikxonasidan borliq gulshaniga kelganini qalam bulbuli tilidan kuylamoq. Chiniiy ipak matolarga ziynat beruvchi san'atkor uning yuz tarafiga quyidagi tartibda naqshlar chizdi: Chin mamlakati o'sha chinlik naqqoshlar chizgan rasmlarning ham rashkini keltiradigan darajada go'zal bo'lib, hatto jannat bog'lari ham unga hasad bilan boqardi. Ana shu Chin mulkining shohi shunday ulug' xon ediki, uni xon emas, xoqon deb atasa ham bo'laverar edi. Mulkining kengligi ikki olamcha, taxtining yuksakligi esa yetti osmoncha edi. Qo'shini yer yuzidagi qumlardan, balki osmondagi yulduzlardan ham ko'p edi. Uning yuzidan har ikki dunyo nur olsa ham, ammo ko'zi bir ko'z qorachig'iga uchib turar edi. Xon o'ziga o'zi der edi: "Jahonning vafosi yo'q. Amal qasrining asosi ham mustahkam emas. Hayot o'tkinchi, dunyo esa turli hodisalardan xoli emas. Agar kishi ming yil podshohlik qilib, butun yer yuziga xo'jayinlik qilganda ham, Oxir-oqibatda yo'qlik jomidan may ichadi va bu dunyodan ketar oldidagina uning bir nafaslik ekanini tushunib yetadi. Shunda taxti martabasining ulug'ligi ko'kka yetgan shoh ham, bir taxta kigiz parchasini boshpana qilgan gado ham, Borliq tuprog'idan qo'l silkib ketar ekan, ularning ikkalasi ham teng ekani, bir-biridan farq qilmasligi ma'lum bo'ladi. Shunday ekan, o'zidan so'ng bir inju - bir farzand yodgor qoldirmagan tojdor qanday qilib boshini yuqori ko'tarib yura oladi?! Bola inju bo'lsa, ota o'sha injuni qo'ynida saqlovchi sadaf. Ya'ni ota - sadaf-u bola undan dunyoga kelgan zurriyotdir. Dengizda sadaf va inju bo'lmasa, u qanday qilib dengiz deb ataladi? U chegarasiz bir achchiq suv bo'lib qoladi xolos. Achchiq suv bo'lganda ham shundayki, mast odamga o'xshab og'zidan ko'piklar sachratib, yuzini mavjdan ajinlar bosib, turli vahshiyliklar qiladi. Chamandagi sarv ko'p go'zal daraxt, lekin mevasi bo'lmagani uchun undan naf yo'q. Go'zallikdan boshqa xususiyati bo'lmagan daraxt, mevasi bo'lmasa, o'tin o'rnidadir. Agar bulut yomg'iri bilan foyda yetkazmasa, u havoda uchib yurgan qalin tutun bilan barobardir. Chaqin chaqqanda yorug'ligigina ko'rinadi, o'chdimi, asari ham qolmaydi. O't o'chsa, qayg'urmasa ham bo'ladi, chunki o'rnida qolgan cho'g' bilan yana o't yoqish oson. Men o'sha gavhari yo'q dengiz yoki cho'g'i yo'q o'tman. Yanada to'g'rirog'i, men dengiz ham emas, vahshat bilan qoplangan ko'lman, yashin tushib alanga olgan o'tman. Bag'rimdagi dog'lar shu o'tdan qolgan. Davr o'chog'imdagi o'tni butunlay o'chirmasin, deb bag'rimdagi cho'g'ga o'xshagan dog'larni asrab yuraman. Qanday ayanchlik, men yillar davomida qon yutib, Chin va Xito mamlakatida xoqonlik qilgan bo'lsam-da,

Bu foniiy dunyodan ketganimdan so'ng birbegona odam kelib joyimni egallasa!

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Chin saltanatining tasviriga diqqat qiling: uning bunday mamlakatga aylanishiga shu yurtxoqoni va xalqidagi qaysi fazilatlar sabab bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?

2. Asarda Chin xoqonining mulki va qudrati qanday tasvirlanadi? Misollar keltirib, asoslang.

3. Chin xoqonining qo'shini ta'rifida "***Sipohieryuzida qum hisobi, Ne qum, gardun uza anjum hisobi***" misralari keltiriladi. Ushbu o'rinda Navoiy qaysi badiiy tasvir vositasidan oqilona foydalangan?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish:

Nasriy tabdilga tayanib, quyidagi so'zlarning izohini yozing:

So'zlar	Ma'nosi	So'zlar	Ma'nosi	So'zlar	Ma'nosi	So'zlar	Ma'nosi
Anjum		Xalaf		Munaqqash		Kadxudoliq	
Barumand		Havodis		Tajammul		Muazzam	
Mukallal		Kaf		Varta		Rif'at	

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

52 listdan iborat adabiyot fanidan 9-sinf III chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar